O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHPULATOV DOSTON TOLMAS O‘G‘LI

3d-METALLARNING GOMOLEPTIK VA GETEROLEPTIK KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA FOTOKIMYOVIY TADQIQOTI

02.00.01 – Noorganik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: 541.49:546.722:546.732:546.742

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical sciences

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
FAN DOKTORI ILMIY DARAJASINI BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.K.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHPULATOV DOSTON TOLMAS O‘G‘LI

3d-METALLARNING GOMOLEPTIK VA GETEROLEPTIK KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI VA FOTOKIMYOVIY TADQIQOTI

02.00.01 – Noorganik kimyo

KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/K380 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ik-kimyo.nuu.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nasimov Abdulla Muradovich** texnika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Rafiqov Atham Salimovich** kimyo fanlari doktori, professor
	Razzoqova Surayyo Razzoqovna kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Umumiy va noorganik kimyo instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019.K.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “17” aprel soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: ilmiy_kengash@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№47 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4 uy. Tel.: (99871) 227-12-24, faks: (99824) 246-53-21; 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “04” aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil “ 03 ” aprel dagi 12-raqamli reyestr bayonnomasi).

Z.A.Smanova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

N.X.Qutlimurotova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d., professor

Sh.A.Kadirova
Fan doktori ilmiy darajasini beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda energiya manbalariga talab oshib borganligidan samaradorligi yuqori va barqaror quyosh elementlari uchun moddalar sintez qilish bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Bunday sensibilizatorlar kelib chiqishiga koʻra oʻta toza kremniyli, noorganik kompleks birikmali va organik birikmali turlarga boʻlinadi. Noorganik kompleks birikmalarni sensibilizatorlar sifatida ishlatish koʻp tomonlama qolgan ikkita muqobiliga nisbatan samarador hisoblanadi. Bundan tashqari zaharli va yuqori konsentratsiyalarda qoʻllaniluvchi birikmalardan voz kechgan holda iqtisodiy tomondan qulay boʻlgan ekologik xavfsiz metall kompleks tipidagi sensibilizatorlarni yaratishga alohida eʼtibor berilmoqda. Jumladan, metall sirtida mustahkam himoya qavati hosil qiluvchi hamda past konsentratsiyalarda va turli harorat intervalida samaradorlikka ega fotosensibilizatorlardan foydalanish muhim oʻrin tutadi.

Jahonda kompleks birikmalar sintezi va ularning turli sohalarda qoʻllanilishi doimo eng muhim yoʻnalishlardan biri boʻlib kelmoqda. Bunday noorganik sensibilizatorlar sifatida koʻpincha ruteniy bipiridin komplekslari ishlatiladi, lekin ruteniy birikmalari nafaqat qimmat, balki zaharli hamdir. Shuning uchun arzonroq va zaharliligi kam metall kompleks birikmalari sintezi va ularni sensibilizatorlarda ishlatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ilgʻor innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, sanoatni jadal rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlar doirasida muayyan natijalarga erishilmoqda va ushbu sohada keng koʻlamli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonida[1] “mavjud imkoniyatlarni toʻliq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish”ga yoʻnaltirilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar ishtirokida 6,6 – disiano-2,2-bipiridin, 3,8-dibromo-1,10-fenantrolin, 2,2-bixinolin, 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin hosil qilgan kompleks birikmalaridan boʻyoq sezgir boʻlgan quyosh elementlari sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmonida, 2018-yil 25-oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3983-son, 2019-yil 3-apreldagi “Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4265-son, 2021-yil 13-fevraldagi “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sogʻlomlashtirish, yuqori qoʻshilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4992-son Qarori

---

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni.

hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiya” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoda olimlar tomonidan olib borilayotgan ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari noorganik kompleks birikmalarga asoslangan sensibilizatorlar bo‘lib, Respublikamizda yangi yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bu sohada AQSh Berkli universiteti professori M.Gratsel va B.Oregan, Massey universiteti (Yangi Zelandiya) professori U.Kampbell, Michigan universiteti (AQSh) professori M.Shtayn, Lill universiteti (Fransiya) professori M.Sliva va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Hozirgi kunda sintez qilingan kompleks birikmalardan bo‘yoq sezgir quyosh elementlari sifatida ishlatish bo‘yicha katta hajmdagi nazariy va amaliy ma’lumotlar to‘plangan. Bu borada G.Boschloo, I.Benesperi, J.Xavier, L.Gibson, M. Pavone, H.Pettersson, A. Hagfeldt, M. Freitag kabi olimlarning izlanishlari alohida e’tiborga loyiqdir.

Mamlakatimizda kompleks birikmalarning sintezi, tuzilishi, xossalari va tadqiqoti bo‘yicha N.A.Parpiyev, B.T.Ibragimov, T.A.Azizov, X.T.Sharipov, A.A.Shabilolov, X.X.Turayev, B.B.Umarov, Sh.A.Kadirova, J.M.Ashurov, A.B.Ibragimov, Sh.Sh.Daminova va ularning shogirdlari katta hissa qo‘shishgan. Shu bilan birgalikda, adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, 3d metall tuzlarining organik ligandlar bilan hosil qilgan komplekslarini tahlil qilish bo‘yicha keng miqyosda tajriba natijalari bo‘lishiga qaramasdan, Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar ishtirokida hosil qilgan kompleks birikmalaridan bo‘yoq sezgir bo‘lgan quyosh elementlari sifatida foydalanish yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli, Fe(II) ionining 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin, 6,6 – disiano-2,2-bipiridin ligandlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarni sintez qilish, fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish va ulardan sensibilizatorlar sifatida foydalanish alohida ilmiy qiziqish kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Noorganik kimyo va materialshunoslik kafedrasi ilmiy yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar ishtirokida hosil qilgan gomoleptik va geteroleptik kompleks birikmalari sintezini amalga oshirish hamda olingan birikmalarning fotokimyoviy xossalarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar bilan gomoleptik va geteroleptik kompleks birikmalari sintez jarayonining maqbul sharoitlarini aniqlash;

3d-metallarning fenontrolin va bipiridin hosilalari bilan komplekslarining elektron tuzilishi, energetik va geometrik parametrlari hamda reaksion qobiliyatini zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida hisoblash;

sintez qilingan gomoleptik va geteroleptik kompleks birikmalarining tuzilishi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullar yordamida tahlil qilish;

sintez qilingan kompleks birikmalarning termodinamik va eritmadagi barqarorlik konstantalarini aniqlash;

olingan kompleks birikmalardan bo‘yoq sezgir quyosh elementi sifatida foydalanish hamda fotosensibilizator sifatida tadqiq etish.

Tadqiqotning ob’yekti. 2,2-bipiridin va 1,10-fenantrolin hosilalari, ularning Fe(II), Co(II), Ni(II) tuzlari bilan kompleks birikmalari, ZnO hamda FTO shisha hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. Gomoleptik va geteroleptik kompleks birikmalarining tarkibi, tuzilishi, individualligi, fizik-kimyoviy, fotosensibilizatorlik xossalarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Infraqizil spektroskopiyasi(IQ), elektron yutilish spektroskopiyasi (UV-vis), diffuz aks etrish spektroskopiyasi, Raman spektroskopiyasi, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), statsionar lyumenessensiya, vaqtga bog‘liq lyuminessensiya, elektron paramagnit rezonansi (EPR) spektroskopiya, differensial-termik analiz (DTA) zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda solishtirma qarshilik, kuchlanish va tok kuchi qiymatlarini aniqlash kabi zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar (6,6–disiano-2,2-bipiridin, 3,8-dibromo-1,10-fenantrolin, 2,2-bixinolin, 3,4,7,8-tetrametil- 1,10-fenantrolin) qo‘shimcha suvli va spirt molekulalari ishtirokida 32 ta yangi gomoleptik va geteroleptik komplekslari sintez qilingan;

Fe(II) ionlarining 2,2-bipiridin, 6,6–disiano-2,2-bipiridin, 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin ishtirokida eritmada hosil qilingan gomoligandli komplekslarning barqarorlik konstanta qiymatlari va ularni ligandlar tabiatiga bog‘liqligi aniqlangan;

kvant-kimyoviy usullarning takomillashtirilgan dasturlaridan foydalanib, sintez qilingan kompleks molekulalarning geometrik va energetik parametrlari, atomlardagi zaryadlarning taqsimoti, reaksion markazlari aniqlangan;

sintez qilingan komplekslarning termik xossalari, termik parchalanish mexanizmi va ularning miqdoriy, energetik jihatlari hamda DSC natijalaridan foydalanib ayni jarayonlar uchun entalpiya o‘zgarishi aniqlangan;

sintez qilingan kompleksning elektron o‘tish energiyasini Taus usuli bilan har ikkala $(\alpha h\nu)^2$ va $(\alpha h\nu)^{1/2}$ holatlar uchun hisoblanib, yarimo‘tkazgich tabiati orqali BSQElar sensibilizator uchun mos kelishi asoslangan;

sintez qilingan tarkibida Fe(II) ionlari gomo- va geteroligandli komplekslarning fotosensibilizatorlik xususiyati AM1.5G simulyatoridan foydalanilganda 5,72% - 6,14 % tashkil qilsa, tabiiy quyosh nurlarida esa 11% – 12% gacha yetishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandlar ishtirokida (6,6 – disiano-2,2-bipiridin, 3,8-dibromo-1,10-fenantrolin, 2,2-bixinolin, 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin) kompleks birikmalar sintez qilishning optimal sharoitlari aniqlangan;

sintez qilingan yangi komplekslarning vaqtga bog‘liq fluoressent spektr tahlili asosida asetonitril eritmasidagi yashash davri 7-10 ns ekaniligi aniqlangan.

sintez qilingan yangi kompleks birikmalardan bo‘yoqlarga sezgir bo‘lgan quyosh elementi sifatida ishlashini baholashda fill faktor(FF) 0,6-0,65 qiymat oralig‘ida bo‘lishi aniqlandi.

Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining 2,2-bipiridin va 1,10-fenantrolin hosilalari bilan eritmada hosil qilgan komplekslari bo‘yoq sezgir bo‘lgan quyosh elementlari uchun qo‘llanilganda bo‘yoq moddalar fotosensibilizatorlik hamda yuqori assimilyatsiya koeffitsiyentiga ega ekanligi bois foydali ish koeffitsiyentini 5,72 – 6,14% ni tashkil qilishi aniqlangan.

2,2-bipiridin va 1,10-fenantrolin hosilalari, ularning Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalari BSQE sifatida tavsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Infraqizil spektroskopiyasi (IQ), elektron yutilish spektroskopiyasi (UV-vis), diffuz aks ettirish spektroskopiyasi, Raman spektroskopiyasi, kukun rentgen difraksiyasi (XRD), statsionar lyumenessensiya, vaqtga bog‘liq lyuminessensiya, elektron paramagnit rezonansi (EPR) spektroskopiya, differensial-termik analiz (DTA) zamonaviy kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda solishtirma qarshilik, kuchlanish va tok kuchi qiymatlarini aniqlash kabi zamonaviy tadqiqot usullari bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining organik ligandli komplekslari to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlarni monitoringi, yangi sintez qilingan komplekslarning tarkibi, tuzilishi, donor atomlari koordinatsiyalanishini, barqarorlik konstantalari, fizik-kimyoviy tahlil usullarda tadqiq qilish, $[M(N)_3]$ tarkibli komplekslarning fotosensibilizatorlik xususiyatlari, solishtirma qarshilik, kuchlanish va tok kuchi kabi elektrokimyoviy parametrlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ahamiyati yangi kompleks birikmalar sintezi va qattiq holda ajratib olish usullarini ishlab chiqishga, yarimo‘tkazgichlik va optik xossalarni namoyon qilishi natijasida quyosh nurlariga sezgir bo‘yoq moddalar asosida ishlaydigan quyosh elementlarida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyosh elementlari uchun noorganik kompleks birikmalar olish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Elektrokimyozavod” qo‘shma korxonasi aksiyadorlik jamiyati qoshidagi “ELKIMYO–AGROHIMOYA” MChJ da amaliyotga joriy etildi (“Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2024-yil 6-maydagi №92 sonli ma’lumotnomasi). 2,2-bipiridin va 1,10-fenantrolin hosilalari bilan tarkibidagi Fe^{2+}, Co^{2+}, Ni^{2+} ionlarini bilan rangli komplekslar hosil qildi, bunda 3d metall ionlarining 0,0025 mol/l gacha past konsentratsiyalarda maqsadli molekulalar mavjudligini aniqlash imkonini bergan. “Elektrokimyozavod” QK AJ ning 2026-2028 yillardagi innovatsion rivojlanitrish dasturiga kiritilgan;

“BMAX BUILDING MATERIALS” MChJ qo‘shma korxonasida amaliyotga joriy etildi (“BMAX BUILDING MATERIALS” MCHJ ning 2024-yil 5-apreldagi №74/A sonli ma’lumotnomasi). Fe(II) ionining 3 ta gomoleptik 4 ta geteroleptik; Co(II) ionining 5 ta gomoleptik 8 ta geteroleptik; Ni(II) ionining 5 ta gomoleptik

7 ta geteroleptik komplekslari bo‘yoq sezgir bo‘lgan quyosh elementlari uchun qo‘llanilganda bo‘yoq moddalar fotosensibilizatorlik hamda yuqori assimilyatsiya koeffitsiyentiga ega ekanligi aniqlangan.

Rossiya Fedratsiyasining “FLUID” MChJ da amaliyotga joriy etildi (“FLUID” MChJ ning 2024-yil 3-apreldagi №94 sonli ma’lumotnomasi). 3d-metallarning gomoleptik $[Fe(L_1)_3](PF_6)_2$, $[Co(L_1)_3](PF_6)_2$, $[Ni(L_1)_3](PF_6)_2$, $[Fe(L_4)_3](PF_6)_2$, $[Co(L_4)_3](PF_6)_2$, $[Ni(L_4)_3](PF_6)_2$; geteroleptik $[Co(L_1)(L_2)_2](PF_6)_2$, $[Fe(L_4)_2(L_1)](PF_6)_2$, $[Co(L_1)(L_4)_2](PF_6)_2$, $[Ni(L_1)(L_4)_2](PF_6)_2$, $[Ni(L_1)(L_2)_2](PF_6)_2$, $[Ni(L_1)_2(L_4)](PF_6)_2$ komplekslari bo‘yoq sezgir bo‘lgan quyosh elementlari uchun qo‘llanildi hamda bo‘yoq moddalar fotosensibilizatorlik hamda yuqori assimilyatsiya koeffitsiyentiga ega ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 16 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 11 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Resspublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 7 ta maqola, shu jumladan 5 ta maqola respublika va 2 maqola xorijiy jurnallarda va xalqaro ilmiy anjumanlarda 5 ta, respublika ilmiy amaliy konferensiyalarida 10 ta tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. dissertatsiya tarkibiga kirish, to‘rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 bet.[2]

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari keltirilgan, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fani va texnologiyasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchliligi, ularning amaliyotga tatbiq qilinishi ochib berilgan va chop etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Fotosensibilizatorlar turlari va 3d metall komplekslarining bo‘yoq sezgir quyosh elementlarida qo‘llanilish istiqbollari”** deb nomlangan **birinchi bobda** Fe(II), Co(II), Ni(II) ionlarining 2,2-bipiridin va 1,10-fenantrolin hosilalari va ular ishtirokidagi kompleks birikmalari sintezi, fizik-kimyoviy xossalari, tuzilishi, fotosensibilizatorlik xususiyati bo‘yicha adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlil qilish asosida dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalari asoslangan.

Dissertatsiyaning **“3d (Fe^{2+}, Co^{2+}, Ni^{2+}) metallarining kompleks birikmalari sintezi va tadqiqot usullari”** deb nomlangan **ikkinchi bobda**

---

[2] Kimyo fanlari nomzodi, dotsent X.Sh.Tashpulatovga dissertatsiya ishini bajarishda bergan ilmiy maslahatlari uchun minnatdorlik bildiraman.

eritmada kompleks birikmalar hosil bo‘lishini o‘rganish, kompleks birikmalarning sintezi va tuzilishini aniqlashning infraqizil spektroskopiyasi, elektron yutilish spektroskopiyasi, diffuz aks etrish spektroskopiyasi, Raman spektroskopiyasi, kukun rentgen difraksiyasi, statsionar lyumenessensiya, vaqtga bog‘liq lyuminessensiya, elektron paramagnit rezonansi spektroskopiya, differensial-termik analiz, kvant-kimyoviy hisoblashlar hamda solishtirma qarshilik, kuchlanish va tok kuchi qiymatlarini aniqlash kabi zamonaviy tadqiqot usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

3*d* metallarning organik ligandlar bilan kompleks hosil qilishi bir qancha adabiyotlardan o‘rganilib chiqilib, sintez qilish uchun maqbul sharoitlari tanlab olindi. Tanlab olingan sharoitlar asosida temir, kobalt hamda nikel ionlarining 6,6 –disiano-2,2-bipiridin, 3,8-dibromo-1,10-fenantrolin, 2,2-bixinolin, 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin ligandlari o‘zaro reaksiyaga kirishib kompleks hosil bo‘lishi, hamda uni cho‘kitrish jarayoni hamda moddani toza holda ajratib olish jarayoni adabiyotlardan o‘rganilib, ba’zi o‘zgartirishlar kiritilgan holda sintez qilish sxemasi taklif qilindi.



1-sxema. Monoligandli komplekslar hosil bo‘lishi



2-sxema. Aralash ligandli komplekslar hosil bo‘lishi

Asosiy ligandlar 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolin (tmphen) va 6,6–disiano-2,2-bipiridin (dcbyp) larning Fe^{2+}, Co^{2+}, Ni^{2+} ionlari bilan gomo- va getroligandli kompleks birikmalarni sintez qilish uchun Me^{2+}: L=1:3 mol nisbatda olinib, 2 mol cho‘ktiruvchi sifatida NH_4PF_6 ishlatildi. Ammoniy geksaftorofosfat kompleks birikmalar sintezida kuchsiz kompleks hosil qiluvchi anioni PF_6^- manbai sifatida ishlatildi, bu modda o‘zining inertligi va ma’lum metall komplekslarini barqarorlashtirish qobiliyati tufayli tadqiqoda foydalanildi. Kompleks birikmlarni eritmada sintez qilishda kuchsiz kislotalidan neytral muhit talab qilinib, 60 °C dan 80 °C haroratlarda oralig‘ida kompleks hosil bo‘lishiga erishilgan, lekin har bir kompleksni sintez qilish uchun alohida pH va harorat talab qilinadi.

“3d (Fe^{2+}, Co^{2+}, Ni^{2+}) metallar gomoleptik va geteroleptek komplekslarining fizik-kimyoviy tadqiqotlari” deb nomlangan **uchinchi bobda**

sintez qilingan kompleks birikmalarning tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish natijalari keltirilgan.

Sintez qilingan kompleksning va prekursorlarning FTIQ spektri 1-rasmda keltirilgan. Spektrdan ko‘rinib turibdiki, $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ funksional guruh sohasi deyarli bo‘sh (ko‘k chiziq). Yutilish polosalarining birinchi guruhi 1400-1700 cm^{-1} oralig‘ida joylashgan va ular tetrametilfenantrolin ligandi aromatik halqasining valent tebranishlariga tegishli hisoblanadi, ya’ni, C=N valent tebranish polosasi 1596 cm^{-1} da va C=C valent tebranish polosasi 1574 cm^{-1} da namoyon bo‘ldi. O‘rtacha intensivlikdagi tor o‘tkir polosa 720 cm^{-1} da ko‘rinadi va u C–H guruhi valent tebranishiga xosdir. Tebranishlarning ikkinchi guruhi esa 870 cm^{-1} atrofida joylashgan va u geksaftorofosfat anioni valent tebranishlariga mos hisoblanadi. Tebranish polosalaridagi quyidagi siljishlar kompleks hosil bo‘lishida koordinatsion bog‘ azot atomi (donor) bilan temir(II) ioni (akseptor) orasida hosil bo‘lishini ko‘rsatadi. Ya’ni, C=N bog‘i valent tebranish chastotasi 1612 cm^{-1} dan 1596 cm^{-1} ga siljiganda, fenantrolin aromatik halqasi C=C valent tebranish chastotasi 1565 cm^{-1} dan 1574 cm^{-1} gacha siljiydi.



1-rasm. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksi va prekursorlarining FTIQ spektri.



2-rasm. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining kombinatsion sochilish (Raman) spektri.

$[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining kombinatsion sochilish (Raman) spektri 2-rasmda keltirilgan va u 1-rasmdagi IQ spektriga komplementar hisoblanadi. Ayni spektrdagi asosiy tebranish polosalari 2000 cm^{-1} dan quyida joylashgan. Namunaning Raman spektridagi asosiy kuchli va o‘tkir polosalar 1511, 1446 hamda 1300 cm^{-1} da joylashgan va fenantrolin aromatik halqasining simmetrik valent tebranishiga tegishli hisoblanadi. 630 cm^{-1} dagi kuchsiz Raman signali esa geksaftorofosfat anionining P–F valent tebranishlariga tegishlidir.

Ayni tadqiqot uchun sintez qilingan $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksi qutbsizdan qutbligacha bo‘lgan turli erituvchilar: dimetilsulfoksid, dimetilformamid, tetragidrofuran, atseton va atsetonitrilda eritilib tadqiqotlar olib borildi. Bunda atsetonitril eng mos erituvchi sifatida tanlandi va kompleksning o‘ziga xos fotofizikaviy xossalari o‘rganildi. Qolgan erituvchilarda kompleks beqaror yoki fluoressensiya xossalarini namoyon qilmadi. Bunga nurlanishsiz relaksatsiya jarayonlarining tezligi kattaligi sabab bo‘ladi.

Kompleksning optik xossalari ularning elektron tuzilishi va ular orasidagi o‘tishlarga bog‘liq. Elektron o‘tish tanlash qoidasi bilan ruxsat berilgan bo‘lsa, uning amalga oshish ehtimoli shuncha katta va shunga mos ε qiymati ham katta bo‘ladi. Ma’lumki, *d*-metallar kompleks birikmalari uchun 3 xil tanlash qoidasi amal qiladi. Bular Laporta, spin va juftlik tanlash qoidalari bo‘lib, biror kompleksning molyar ekstinksiya koeffitsiyenti qiymatiga qarab unda qanday o‘tishlarga ruxsat berilgan yoki ta’qiqlanganligini empirik baholash mumkin.

BSQE maqsadida sensibilizator yoki mediator sifatida ishlatishga mos kelishi uchun kompleksning molyar yutilish (ekstinksiya) koeffitsiyenti yuqori bo‘lishi kerak. Shuning uchun $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining $1\cdot10^{-5}$ M dan $8\cdot10^{-5}$ M gacha konsentratsiyali eritmalari tayyorlanib, 500 nm dagi optik zichligi o‘lchandi (3-rasm).



3-rasm. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining atsetonitrilda turli xil konsentratsiyadagi ertitmasining elektron yutilish spektri



4-rasm. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining atsetonitril eritmasida graduirovka chizig‘i



5-rasm. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining Taus diagrammasi

Spektrdan sintez qilingan kompleksning nurni yaxshi yutishini juda past konsentratsiyada ham sezilarli optik zichlik namoyon qilishidan bilish mumkin. 500 nm dagi optik zichlik qiymatlari bilan konsentratsiya orasidagi bog‘liqligidan foydalanib $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining molyar ekstinksiya koeffitsiyenti hisoblandi (4-rasm). Ushbu bog‘liqlikdan kompleksning molyar ekstinksiya koeffitsiyenti 14000 $M^{-1}\cdot cm^{-1}$ atrofida ekanligi kelib chiqdi. Bunday yetarlicha katta molyar ekstinksiya koeffitsiyenti qiymati ayni kompleksda barcha o‘tishlar ruxsat berilganligini ko‘rsatdi. $[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksi elektron yutilish spektridagi polosalar tabiatini yanada yaxshiroq tushunish uchun Tanabe-Sugano diagrammasiga murojaat qilsak, 500 nm dagi polosa $^1A_1 \rightarrow {}^1T_1$ hamda $^1A_1 \rightarrow {}^1T_2$ o‘tishlardan kelib chiqqan deb xulosa qilish mumkin.

$[Fe(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining yarimo‘tkazgich tabiatini baholash uchun Taus usulidan foydalanib to‘g‘ri va teskari ta’qiqlangan zona energiyasi (kengligi) hisoblandi (5-rasm). Teskari ta’qiqlangan zona energiyasi $E = (\alpha h\nu)^{1/2}$ tenglama bilan hisoblanib, ekstrapolyatsiya qilinganda energiya darajasi 1,86 eV ekanligi aniqlandi. Kompleksning hisoblangan yarimo‘tkazgich tabiati uning BSQE uchun sensibilizator sifatida mos kelishini tasdiqlaydi.

$[Fe(tmphen)_3]^{2+}$ ning atsetonitrildagi absorbsiya va emission spektrlari 6-rasmda keltirilgan. Uning elektron yutilish spektridagi 480, 510 va 540 nm dagi polosalar yaqqol ajralib turadi (ko‘k chiziq). Shuningdek, ushbu spektrda 570 va 590 nm da ham qo‘shimcha kuchsiz polosalar ham borligini ko‘rish mumkin. Ayni kompleksning emission spektri esa bir keng polosaga ega bo‘lib, asosiy polosa namuna 440 nm da, qo‘zg‘atilganda 510 nm da emission maksimumni namoyon qiladi (qizil chiziq).



6-rasm. $[Fe(tmphen)_3]^{2+}$ kompleksining atsetonitrildagi absorbsiya (ko‘k chiziq) va emission (qizil chiziq) spektlari; λ_{exc} = 440 nm. Rasm ichidagi spektrda yashil chiziq bilan berilgan emission spekt uchun λ_{exc} = 540 nm ga teng



7-rasm. $[Fe(tmphen)_3]^{2+}$ kompleksining atsetonitrildagi fluoressensiya yashash davri spektri

Moddaning 510 nm dagi emission spektrning vaqtga asoslangan fluoressensiya yashash vaqti o‘lchanganda 9 ns ga tengligini ko‘rsatdi (7-rasm).

Bu esa ayni polosa triplet holat emas, balki singlet holatda sodir bo‘lishini tasdiqlaydi. Ligand strukturasida qo‘shimcha yon zanjirlarning bo‘lmasligi shunday qisqa fluoressensiya yashash davriga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Fenantrolin molekulasiga 4 ta metil guruhining biriktirilishi temir bilan hosil qilingan kompleks birikmaning nisbatan qattiq (bukilmaydigan) bo‘lishiga sabab bo‘ladi va nurlanish bilan amalga oshadigan yangi deaktivatsiya yo‘llarini ochishi mumkin. Buning natijasida 825 nm atrofida joylashgan kuchsiz emission polosa metalldan ligandga zaryad ko‘chishi (metal to ligand charge transfer – MLCT) o‘tishlardan kelib chiqishi mumkin (6-rasm ichidagi spektr). Bu fikr 825 nm dagi emission polosaning 540 nm dagi absorbsion spektr bilan ko‘zgudagi aks shaklida bo‘lishi mumkinligi ham tasdiqlaydi, lekin 825 nm dagi emission polosaning tabiatini to‘liq tushunish uchun uning vaqtga bog‘liq fluoresensiya spektrini olish kerak.

Vaqtga bog‘liq fluoressensiya spektrini olish uchun turli erituvchilar ishtirokida jarayon amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

$[Fe(tmphen)_3]^{2+}$	n	a_1	a_2	a_3	τ_1	τ_2	τ_3	$\overline{\tau}$	χ_R^2
ACN	3	1,737	3,045	6,686	11,540	1,051	4,49	4,645	1,2200
DMSO	2	1,186	10,399	-	10,620	3,780	-	4,481	1,4040
DMF	2	2,125	9,451	-	9,000	3,277	-	4,327	1,5940
MeOH	2	2,893	8,461	-	8,177	2,538	-	3,975	1,9980

1-jadvaldagi natijalar asosida quyidagi formulalar orqali turli erituvchilarda erigan $[Fe(tmphen)_3]^{2+}$ kompleksning o‘rtacha yashash davri qiymati hisoblandi. Barcha natijalar $\overline{\tau} = \sum_i f_i \tau_i$ yoki $f_i = \frac{a_i \tau_i}{\sum a_i \tau_i}$ formulalar asosida hisoblandi. Atsetonitrildagi o‘rtacha yashash davri boshqa erituvchilarga nisbatan uzoqroq ekanligi aniqlandi.

$[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksning EPR spektrlariga ko‘ra (8-rasm). kompleks hosil qiluvchi Co^{2+} ioni d^7-elektron konfiguratsiyaga ega. Spektrdan ayni kompleks ideal oktaedr bo‘lmasdan, aksial yo‘nalishlarda simmetriyali bo‘lib, z-o‘qi bo‘yicha farq qilishini tasdiqlaydi, ya’ni Yan-Teller effekti kuzatiladi. Bundan kelib chiqib, markaziy ion izotropik maydonda emas, tetragonal ligand maydonida joylashgan deb xulosa qilish mumkin. Ayni kompleksning elektron yutilish spektridagi yuqori molyar ekstinksiya koeffitsiyentiga egaligi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi (ya’ni, kompleks sentrosimmetrik emas).



8-rasm. $[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksning EPR spektri

g faktorning 2,01414 va 2,30264 kabi farqlari kompleksning anizotropik maydon tuzilishi va orbital momentlar ta’siridan kelib chiqadi. Bu farqlar elektroning spin momenti va orbital momentlarining o‘zaro ta’siri hamda tetragonal simmetriya yoki assimmetriya tufayli paydo bo‘ladi. EPR spektrdagi bu farqlar energetik darajalar va magnit maydonlar ta’sirini ko‘rsatib, g faktorning o‘zgarishiga olib keladi.

$[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$ ning difraktogrammasida mos Breg burchaklarida cho‘qqilar paydo bo‘ladi, bu esa kompleksning kristall strukturasini va o‘lchamlarini aniqlash imkonini beradi. Difraktogrammadan cho‘qqilar komplekning kristall fazalarini va kiristallik darajasini aniqlandi. $[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$ ning difraktogrammasida Co(II) kompleks strukturasiga xos bo‘lgan asosiy cho‘qqilarni 9-rasmda ko‘rish mumkin:



Parametrlar	$[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$
a, Å	13,215
b, Å	17,823
c, Å	19,823
α, ^{0}	90^o
β, ^{0}	$96,8^o$
γ, ^{0}	90^o
V, Å3	4636,1
F. G.	P21/n
Singoniya	Monoklin

9-rasm. $[Co(tmphen)_3](PF_6)_2$ kompleksining difraktogrammasi

9-rasmda o‘lchashlar xona haroratida va difraksiya burchagi (2θ) 5° dan 50° gacha qadamli rejimda skanerlandi.



10-rasm. [Co(tmphen)$_3$](PF$_6$)$_2$ kompleksning *a,b,c* o‘qlar bo‘ylab kristall tuzilishining ko‘rinishi

9,10-rasmlarda [Co(tmphen)$_3$](PF$_6$)$_2$ tarkibli kompleksning kristall tuzilishi monoklinik holatda bo‘lib, fazoviy guruh: P21/n. Panjara birliklari *a*=13,215 Å, *b*=17,823 Å, *c*=19,823 Å teng bo‘lib, zichligi ρ=1,678 g/cm^3 ga teng. Burchaklari *α*=*γ*=90º, *β*=96,8º. Shuningdek, [Co(tmphen)$_3$](PF$_6$)$_2$ kompleksning kristallik darajasi hisoblanganda 76,75% kristall va 23,25 % amorf tuzilishga ega ekanligi aniqlandi.

[Fe(tmphen)$_2$(dcbyp)](PF$_6$)$_2$ tarkibli kompleksning kristall tuzilishi triklinik bo‘lib, fazoviy guruhi P1. Panjara birliklari *a* =11,8123 Å, *b*=13,0356 Å, *c*=17,575 Å teng bo‘lib, zichligi ρ=1,662 g/cm^3 ga teng. Burchaklari *α*=91,461º, *β*=101,347º hamda *γ*=99,830 (12-rasm).



Parametrlar	[Fe(tmphen)$_2$(dcbyp)](PF$_6$)$_2$
a, Å	11,8123
b, Å	13,0356
c, Å	17,575
α, ^{0}	91,461
β, ^{0}	101,347
γ, ^{0}	99,830
V, Å3	2609,5
F. G.	P1
Singoniya	Triklin

11-rasm. [Fe(tmphen)$_2$(dcbyp)](PF$_6$)$_2$ kompleksining difraktogrammasi

Rentgen difiraksiyasi tadqiqotlari [Fe(tmphen)$_2$(dcbyp)](PF$_6$)$_2$ kompleksning 86% kristall va 14% amorf tuzilishga ega ekanligi ko‘rsatdi. Ayni kompleksning kristallik darajasi yuqoriligi taklif qilinayotgan sintez usuli bu kabi komplekslar olish uchun mos kelishini tasdiqlaydi (11-rasm).



12-rasm. [Fe(tmphen)$_2$(dcbyp)](PF$_6$)$_2$ kompleksning *a,b,c* o‘qlar bo‘ylab kristall tuzilishining ko‘rinishi

Kompleks birikmalarning xossalarini termik usulda aniqlash ular tarkibidagi ligandlar tabiati, soni, shuningdek kompleks birikmaning termik barqaroligi kabi muhim ma’lumotlarlarni beradi. Tahlillar termogravimetrik analiz (TGA) va differensial skanerlovchi kalorimetriya (DSC) birgalikda amalga oshirildi. $[Fe(tmpen)_2(dcbyp)](PF_6)_2$ kompleksining termik tadqiqoti 55 °C dan 675 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida o‘tkazildi (13-rasm).



13-rasm. $[Fe(tmpen)_2(dcbyp)](PF_6)_2$ kompleksning derivatogrammasi



14-rasm. $[Fe(tmpen)_2(dcbyp)](PF_6)_2$ kompleksning termik effekti orqali entalpiyasini hisoblash

Kompleks birikmaning termogrammasining DSC chiziqlarida 420-580 °C larda endotermik jarayon kuzatilgan, bu kompleks birikmaning parchalanish harorati 500 °C ga to‘g‘ri keladi. Kompleks $[Fe(tmpen)_2(dcbyp)](PF_6)_2 \cdot nH_2O$ deyarli 100 °C da suvsizlanib, $[Fe(tmpen)_2(dcbyp)](PF_6)_2$ kompleksga aylanadi. 135-315 °C harorat oralig‘ida 6,6 – disiano-2,2-bipiridin(dcbyp) ajralib, massa kamayishi 4,8% ni tashkil etadi. 320-470 °C harorat oralig‘ida 1 mol 3,4,7,8-tetrametil-1,10-fenantrolinning ajralib, massa kamayishi 5,1% ni tashkil etadi. Keyingi massa kamayishi 475-515 °C haroratda amalga oshib, egri chiziqda burilish kuzatildi. Bu esa 3,4,7,8-tetremetil-1,10-fenantrolinning ikkinchi molini yo‘qolishiga mos keladi va massa yo‘qolishi 6,2% ni tashkil etadi. TGA egri chizig‘ida 520-675 °C oralig‘ida massa yo‘qolishi 3% ni tashqil qilib, geksaftorofosfat molekulasi tarkibidan bir molekula ftor chiqib ketishiga va tetraftorofosfat anioni qolishiga mos keladi. Termolizning oxirgi mahsuloti PF_5^- anioniva FeO tashkil qiladi. DSC natijalaridan foydalanib ayni jarayon uchun entalpiya o‘zgarishi 353 kJ/mol teng bo‘ldi (14-rasm).

Sintez qilingan komplekslar tuzilishini kvant kimyoviy baholash. Komplekslarning tuzilishi kvantokimyoviy tahlil qilindi va bir qancha tanlangan orbitalar haqida ma’lumotlar 2-jadvalda keltirildi. HOMO va HOMO ga yaqin orbitalar (HOMOlar) asosan markaziy temirning d-orbitalaridan tashkil topgan. LUMO lar to‘plami esa asosan ligandlardan iborat. HOMO va LUMO orbitalarining shakli 15-rasmda ko‘rsatilgan bo‘lib, HOMO orbitalarining degeneratsiyalangan va asosan metallning d_{z^2} va $d_{x^2-y^2}$ orbitalaridan tashkil topganligi ko‘rinadi. LUMO esa ligandlarning p-orbitalaridan tashkil topgan. 3-jadvalda temirning 3 xil ligandlar bilan hosil qilgan komplekslarining HOMO va LUMO orbitalari taqqoslash uchun foydalanildi.

2-jadval.

Brikma	HOMO (eV)	LUMO (eV)	E_g (eV)
$[Fe(phen)_3]^{2+}$	-11,34	-7,469	3,87
$[Fe(Br_2phen)_3]^{2+}$	-11,66	-7,795	3,87
$[Fe(tmphen)_3]^{2+}$	-10,48	-6,710	3,77
$[Co(phen)_3]^{2+}$	-10,87	-7,514	3,36
$[Co(tmphen)_3]^{2+}$	-11,28	-7,844	3,44
$[Ni(phen)_3]^{2+}$	-10,94	-7,630	3,31
$[Ni(Br_2phen)_3]^{2+}$	-11,34	-7,967	3,37
$[Ni(tmphen)_3]^{2+}$	-10,13	-6,757	3,37

3-jadval.

	$Fe(phen)_3]^{2+}$	$Fe(Br_2phen)_3]^{2+}$	$Fe(tmphen)_3]^{2+}$
HOMO			
M	77,83	41,72	72,40
L1	7,30	18,50	9,48
L2	6,95	19,41	9,26
L3	7,92	20,37	8,86
LUMO			
M	9,36	12,88	10,45
L1	30,25	3,33	46,12
L2	26,98	43,19	2,70
L3	33,41	40,60	40,73



15-rasm. Turli temir asosli kompleksalarda HOMO va LUMO energiylari farqi. Markaziy ion temir bo‘lgan komplekslarini HOMO va LUMO tarkibini solishtirish. (L –ligandlar, M – Fe)

